

MODERNIZM METODI VA UNING O‘ZBEK ADABIYOTIGA KIRIB KELISHIDAGI YONDASHUVLAR

Tangirova D.E.

Jizzax DPU, katta o‘qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20623094>

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy adabiyotimizga modernizm tushunchalarning kirib kelishiga XX asrning so‘nggi choragidagi ijtimoiy-siyosiy hayot, ijodkor ahlining fikriy evrilishlariga uchrashi sabab bo‘ldi. Sobiq jamiyat tomirlarining uzilishi, ma‘naviyatda yuzaga kelgan bo‘shliq she‘riyatdagi izlanishlarga yo‘l ochib berilganligi ushbu maqolada mohirona ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Globallushuv jarayoni, Modernizm. Jahon adabiyotida Modernizm, O‘zbek adabiyotida modernizm.

Аннотация: В данной статье рассматривается внедрение модернистских концепций в национальную литературу как результат социально-политической жизни последней четверти XX века и интеллектуальной эволюции творческих людей. Статья умело показывает, что разрыв прежних традиций общества, возникший в результате духовный разрыв, открыл путь для исследований в поэзии.

Ключевые слова: процесс глобализации, модернизм, модернизм в мировой литературе, модернизм в узбекской литературе.

Annotation: In this article, the introduction of modernist concepts into our national literature was due to the socio-political life of the last quarter of the 20th century, the intellectual evolution of creative people. This article skillfully reveals that the rupture of the veins of the former society, the resulting gap in spirituality, opened the way for research in poetry.

Keywords: Globalization process, Modernism. Modernism in world literature, Modernism in Uzbek literature.

Modern atamasining milliy adabiyotimizga kirib kelishi birmuncha munozarali kechmoqda. Bugungi o‘zbek modern she‘riyati o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan hodisa emas. Uning ilk ildizlari Cho‘lpondek ulug‘ she‘riyat darg‘alari ijodiga borib taqaladi. Buning uchun Cho‘lponning birgina “Ulug‘ hindiy” sarlavhali maqolasini eslash kifoya: “Eski adabiyot bilan yangi adabiyotning o‘rtasida qolg‘on sharqli yosh chinakam chuchmal bir vaziyatdadir. Eski adabiyot bir shirin, yangisi yana shirin, g‘arbniki tag‘in — yana shirin. Qaysi bittasiga ko‘proq berilsin?”

Bugungi she‘riyat ham yangi o‘zgarishlar bosqichiga qadam qo‘ydi. Bunda asosiy ikki yo‘nalish mavjud: biri an‘anaviy va yana biri modern she‘riyatidir. Modern she‘riyatda ikki xususiyat ko‘zga tashlanadi. Biri shakl va mazmundagi yangilik, ikkinchisi an‘anaviy shaklda mohiyatdagi yangilik. Eng muhimi esa, bizga notanish bo‘lgan ruhning ustuvorligi. “Estetika maktabida modernizm yo‘nalishlarining aynan o‘xshashlarini topish qiyin. Modernizmning ko‘pgina badiiy yo‘nalishlari birdaniga ikki yoki undan ortiq asosga tayanadi. Va har bir badiiy yo‘nalish u yoki bu darajada aniq konsepsiyaga asoslanadi. Xuddi shu ma‘noda modernizmning falsafiy-estetik qurilishi doim an‘anaviy (fundament — devorlar — tom) shaklida bo‘lavermay, ba‘zan “tomdan” (badiiy—nazariy, estetik g‘oyalardan emas) boshlanadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida modernizm tadqiqotlari ikki asosiy yo‘nalishda olib borilgan: birinchi yo‘nalish modern qarashlarni ma‘qulloqchi, ikkinchisi esa tanqidiy, inkor etuvchi pozitsiyani aks ettiradi. Mazkur yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar P. Qodirov, O. Sharafiddinov, B. Sarimsoqov, U. Normatov, U. Hamdamov, E. Ochilov, Q. Yo‘ldoshev, D. To‘raev kabi

adabiyotshunoslarning maqola va adabiy suhbatlarida yoritilgan. Shu bilan birga, M. Xolbekovning monografik tadqiqoti hamda A. Hayitov, H. Djumaniyazova, M. Yo'ldosheva, M. Xolova, M. Davronova kabi tadqiqotchilarning dissertatsiyalari modernizmning adabiy va falsafiy aspektlarini chuqur tahlil qilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida olib borilgan ushbu tadqiqotlar modernizm fenomenining badiiy asarlarda namoyon bo'lishi, janr va shakllar tizimi, individual-uslubiy xususiyatlar hamda tarixiy-yestetik kontekst bilan uzviy bog'liqligini aniqlashga qaratilgan.

Modernizm – bu murakkab ijtimoiy va madaniy hodisa bo'lib, u XIX asr oxiri va XX asr boshlariga borib taqaladigan, san'atda va adabiyotda asosan o'z davri uchun innovatsion (yangilik) bo'lgan shakllar, mavzular hamda uslublarni joriy qilgan aniq oqim sanaladi. Modernizm mohiyati modern badiiy asarini yuksak san'at asari darajasiga olib chiqish mezonlarini belgilab beradi. Bu yuksak san'at darajasi o'tmish san'at an'alaridan chekinib, dunyoqarash sari yangi tajribalarga intilishdir. O'tgan asr san'at va adabiyotida istiloh sifatida qo'llana boshlangan modernizmning bugungacha ko'plab bahsu-munozaralar maydonida sinalayotganining sabablaridan biri aynan an'analarni tark etibgina qolmasdan, balki shu an'analardan batamom voz kechib, yangi qirralarini ochishda jur'at va dadillikning tobora shiddatlashib borayotgani deb tushunamiz. Modernizm izdoshlari modernizm estetikasi bilan shug'ullanib, ijtimoiy tartiblarni, odamlar fikri va shaxsiy tajribani nazariy jihatdan asoslash uchun harakat qilganlar.

Modernizm estetikasi haqida so'z borganida uning shiddat bilan qaror topib ketishida global muammolar asosiy o'rin tutishi nazarda tutiladi. O'tgan XX asrning tahlikali davri inson, jamiyat va tabiat bog'liqligida sodir etilgan turli falokatlarga qarshi kurashib, maqbul yechimlarni joriy qilishda jahon xalqlarining yakdil birikuv va jipslashuvining zarurati muhim xalqaro global muammolardan biri sifatida qabul qilindi. Bunday xalqaro darajadagi muammolarning hal etilishi uchun munosabatlarda ham globallashtirish pozitsiyasi talab etiladi.

Globallashtirish lotin tilidagi “globus” so'zidan olingan bo'lib, u o'zbek tilida “yer shari” degan ma'noni bildiradi, ya'ni umumbashariy, dunyoviy kabi tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bashariyat XX asrda mavjud ijtimoiy-siyosiy qarashlar ostidagi ikki qutb atrofida globallashtirdilar, bular – sotsialistik mamlakatlarda yashovchi xalqlarning o'zaro yaqinlashuvidan iborat globallashtirish hamda kapitalistik tuzum hukmron bo'lgan erkin va demokratik jamiyatga asoslangan xalqlarning o'zaro globallashtirishi hisoblanadi. Globallashtirish jarayonida yuzaga kelgan bo'linishlar jamiyatning turli jabhalari qatorida adabiyot va san'atda ham o'z aksini topdi. Ijtimoiy hayot, siyosiy mafkura, tarixiy sharoit voqeliklari badiiy adabiyotda in'ikos etish vazifasiga muvofiq globallashtirish jarayoni har bir xalq va millat badiiy adabiyotida o'zini u yoki bu darajada namoyon eta boshladi va bu jarayon ulkan hodisaga aylanib, XXI asr bo'sag'asida yanada rivoj topdi. Modernizm genezisidan tortib to bugungi kun qiyofasigacha bo'lgan jarayonlarni tadqiq qilarkan, professor M.Xolbekov modernizmning globallashtirish sharoitida tutgan o'rni va ahamiyatini bir necha o'rinli faktlarni asos qilib keltiradi: “Yangi yigirma birinchi yuz yillik o'zining ilk qadamini elektron aloqa vositalari bilan qurollangan, istalgan tilda yozilgan matn bilan tanishishga imkon beruvchi dasturlarga ega internet vositasi yordamida tashladi. O'z navbatida bu jarayon estetik integratsiyalashuv va adabiy globallashtirish jarayonlarini jadallashtirmoqda.”

M. Xolbekovning “XX asr jahon modern adabiyoti manzaralari” monografiyasida “umumbashariy adabiyot” tamoyillari asosan nasriy asarlar misolida talqin etiladi. Tahminimizcha, adabiyotshunos talqin qilgan modern “manzaralari”da modernlik tushunchasining milliy adabiyotlarga kirib kelishi “adabiyot milliy madaniyatlar mustaqilligini,

o‘ziga xosligini va betakrorligini saqlagan holda, o‘z ichiga boshqa millat va xalqlar adabiy yutuqlarini singdirib olganligi bilan muhim ahamiyatga ega” bo‘lganligidadir.

Demak, globallashuv o‘tgan asrning urushlar asri ekanligi va uning fonida inson aql zakovatining ixtiro va kashfiyotlari, texnogen asrining yutuq va ofatlari, imperializm gegemoniyasi, xalqaro yadro loyihalarining plyuralizmga xavf-xatari, koinot-iqlim muvozanatining o‘zgarishi, ijtimoiy tengsizliklar, kabi “oq va qora” kuchlar aro kurashlarning keskin tus olishi natijasida inson qalbi ichki qichqirig‘i sabab bo‘ldi. Biroq bu ichki chinqiriq, dod-fig‘onlar monolog tarzida ifodalanishi maqsad qilinmagan, balki yozuvchining jamiyatdan holi tarzda o‘z o‘zi bilan dialogga kirishuvini taqozo etgan yangicha usullar sanaladi.

Modernizmning nazariy asoslari o‘tgan asrning turli yillarida G‘arbda, Amerikada va boshqa turli hududlarda bir necha adabiy oqimlarning uyg‘onishiga olib keldi. Ta’kidlash joizki, modernizm nazariyasi bo‘yicha yaxlit ilmiy-nazariy tadqiqotlar yaratilmagan bo‘lsa-da, biroq Yevropa va Amerikalik adiblar o‘zlarining badiiy asarlari orqali modernizm estetikasining belgilarini namoyish etgan edi. Masalan, fransuz adabiyotining taniqli vakili Andre Morua ijodida bevosita modernizmning klassik tajribalariga asoslanilmagan bo‘lib, u zamonaviy – modern psixologik tahlil va biografik janrni yangilash orqali o‘z davri adabiyotshunosligiga katta hissa qo‘shgan. Ya’ni modern psixologik romanlar muallifi hisoblanish bilan birga o‘z davrining yirik modernistik yozuvchilari ijodini tahlil qilgan va ularning merosini ommalashtirishda muhim rol o‘ynagan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Yo‘ldoshev Q. Modernizm: ildiz, mohiyat va belgilar. – Yoshlik jurnali, 2014., 4-son.
2. Nargis Mamatqulova UzMU daktaranti.”Jaxon adabiyoti jurnali”2005 yil 12-son.
3. Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari. –Toshkent: “Mumtoz so‘z” 2014. –B.387.